

XALQARO XUSUSIY HUQUQDA DELIKT MAJBURIYATLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Ergashova F.Z

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti zoidovnafarangiz@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqolada xalqaro xususiy huquq tizimidagi delikt majburiyatlarining huquqiy tabiati, tartibga solish mexanizmlari va amaliy qo'llanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda delikt majburiyatlarining xalqaro xususiy huquqiy munosabatlar tizimidagi o'rni o'rganilgan. Maqolada O'zbekiston va xalqaro qonunchilikdagi kamchiliklar aniqlanib, ularning yechimi yo'llari taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *xalqaro xususiy huquq, delikt majburiyatlari, lex loci delicti, chet el elementi, qonunchilik kolliziyasi.*

KIRISH

Hozirgi zamon huquqiy tizimida fuqarolik-huquqiy munosabatlar tobora murakkablashib, xalqaro xarakter kasb etib bormoqda. Jamiyat taraqqiyoti bilan birga shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ham yangi shakllar va ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. Fuqarolik-huquqiy majburiyatlar ichida delikt majburiyati alohida o'rin tutadi va uning ahamiyati doimo yuqori bo'lib kelgan. Insoniyat tarixida har doim bir shaxsning boshqa shaxsga zarar yetkazishi holatlari mavjud bo'lgan va jamiyat bunday vaziyatlarni tartibga solishga harakat qilgan. Huquqiy javobgarlik institutining shakllanishi va rivojlanishi delikt munosabatlarini tartibga solish zarurati bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy huquqshunoslikda delikt majburiyati fuqarolik huquqining mustaqil va keng o'rganiladigan instituti sifatida tan olingan. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish tamoyillari delikt javobgarligining asosini tashkil etadi. Jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvi turli davlatlarga mansub shaxslar o'rtasidagi huquqiy aloqalarni keskin oshirdi. Xalqaro savdo, turizm, transport va boshqa sohalardagi faollik xalqaro delikt munosabatlarining ko'payishiga olib keldi. Zamonaviy huquq tizimida delikt majburiyati fuqarolik huquqining eng muhim va qadimiy institutlaridan biri hisoblanadi. Delikt majburiyati shaxsning huquqqa xilof harakati natijasida boshqa shaxsga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini nazarda tutadi. Shartnoma majburiyatlaridan farqli o'laroq, delikt majburiyati tomonlar o'rtasida oldindan kelishuvsiz, qonun asosida yuzaga keladi. Tarixiy jihatdan delikt javobgarligi Rim huquqidan boshlab rivojlangan va barcha huquq tizimlarida o'z ifodasini topgan. Globallashtirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi sharoitida xalqaro delikt munosabatlar tobora ko'payib bormoqda. Turli davlatlarga mansub shaxslar o'rtasidagi delikt munosabatlarini tartibga solish uchun maxsus kollizion qoidalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Xalqaro xususiy huquqdagi delikt majburiyatlarining huquqiy tabiatini ochib berish, O'zbekiston qonunchiligidagi dilekt majburiyatlarni tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilish va amaliy muammolarni aniqlashdir.

Tadqiqotning vazifalari: Delikt majburiyatlarining xalqaro xususiy huquqdagi tushunchasini aniqlash, O'zbekiston va xalqaro qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish, qonunlar to'qnashuvi muammolarini o'rganish, sud amaliyotidagi holatlardagi yondashuvlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Maqolada qiyosiy-huquqiy, tahliliy, normativ va funksional metodlardan foydalanilgan.

Asosiy qism. Zamonaviy huquq tizimida delikt majburiyati fuqarolik huquqining eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Delikt majburiyati shaxsning huquqqa xilof harakati natijasida boshqa shaxsga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini nazarda tutadi. Delikt majburiyati tomonlar o'rtasida oldindan kelishuvsiz, qonun asosida yuzaga keladi va hu xususiyati bilan shartnoma majburiyatlaridan farq qiladi. Xalqaro xususiy huquqda delikt majburiyatiga qaysi davlat qonuni qo'llanilishi masalasi alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. "Zarar yetkazilgan joy qonuni" (*lex loci delicti commissi*) tamoyili asosiy kollizion qoida sifatida xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladi. Biroq, zamonaviy huquq tizimlarida bu tamoyilga bir qator istisnalar va alternativ yechimlar ham belgilangan. Zarar ko'ruvchining manfaatlarini himoya qilish maqsadida moslashuvchan kollizion qoidalar joriy etilmoqda. Delikt majburiyatini to'g'ri tushunish va to'g'ri qonun qo'llash xalqaro sud amaliyotida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro delikt munosabatlarini tartibga soluvchi zamonaviy qoidalarni qabul qilgan. Ushbu tahlil delikt majburiyatining nazariy asoslari, xalqaro-huquqiy jihatlari va amaliy qo'llanilishini chuqur o'rganishga qaratilgan. Mavzuning dolzarbligi zamonaviy huquq munosabatlarida delikt javobgarligining o'sib borayotgan roli bilan belgilanadi. Delikt majburiyati instituti fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish vositasi hisoblanadi.

Ma'lumki, fuqarolik huquqining asosiy manbasi, uning eng qadimiy ko'rinishi va shakllanish asosi Rim huquqi hisoblanadi. Ushbu huquq tizimida huquqiy majburiyatlar shartnomaviy majburiyatlar (*obligationes ex contractu*), delikt majburiyatlar (*obligationes ex delicto*) va tasniflab bulmaydigan majburiyatlarga (*variis causarum figures*) bo'linadi⁴⁴. Zamonaviy fuqarolik huquqida bunday tasniflashni rad etilgan holda majburiyatlar shartnomaviy va shartnomadan tashqari majburiyatlarga bo'linadi. Hamyurt olimlarimiz o'z tadqiqotlarida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar shartnomadan tashqari majburiyatlarning bir turini tashkil qilishini ta'kidlaydilar⁴⁵. Bunda tomonlar bevosita fuqarolik huquqi subyekti bo'ladilar, biroq majburiyatlar oldindan kelishib olinmagan bo'ladi. Bundan majburiyatlar to'satdan, kutilmaganda, kelishmagan holatda bir tomonning ikkinchi

⁴⁴ Xazratqulov Odilbek Tursunovich. Delikt majburiyatlarining kollizion masalalari / O'quv qo'llanma. – T.: TDYuU, 2023. 106–bet.

⁴⁵ О.Н. Садиков. Гражданское право Российской Федерации. Учебник. Том II. –М.: Инфра-М, 2006. –С.447.

tomonga zarar yetkazishidan kelib chiqadi. Bu zarar yetkazilishi noqnuniy bo'lgan taqdirda va zarar hamda oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lgan taqdirda dilekt majburiyat hisoblanadi. Ya'ni, delikt majburiyati bu bir shaxsning huquqqa xilof harakati natijasida boshqa shaxsga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha yuzaga keladigan majburiyati hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarimizga asoslanib uning asosiy belgilari sifatida quyidagi uchta belgini ko'rsatishimiz mumkin. Shartnoma asosida emas, qonun asosida vujudga kelishi, zarar yetkazish faktidan kelib chiqishi, javobgarlik va tovon to'lash majburiyatini keltirib chiqarishi asosiy belgilari hisoblanadi. Bunday majburiyat chet elementi bilan aralashganda esa zarar yetkazilgan joy qonuni qo'llanilishi prinsipi, ya'ni lex loci delicti commissi - delikt sodir etilgan joy qonuni qo'llanishi tamoyili ishga tushadi. Bunda zarar yetkazilgan davlat qonunchiligi asosiy hisoblanadi. Lekin ayrim holatlarda delikt sodir etilgan joy va zarar yuzaga kelgan joy farq qilsa, zarar ko'ruvchi o'zi uchun qulay qonunni tanlashi mumkin. Bundan tashqari, tomonlarning umumiy fuqaroligi bo'lsa, o'sha davlat qonuni qo'llanilishi ham mumkin. Umuman olganda, delikt majburiyati huquqbuzarlik asosida vujudga keladigan majburiyat bo'lib, zarar yetkazgan shaxsni javobgarlikka tortadi. Xalqaro xususiy huquqda asosan zarar yetkazilgan joy qonuni qo'llaniladi, lekin zarar ko'ruvchining manfaatlarini himoya qilish uchun moslashuvchan yondashuvlar mavjud. Bu institut fuqarolarning huquqlarini xalqaro darajada himoya qilishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi G.Dernburgning fikricha, majburiyatlar bo'linishining asosi sifatida majburiyatlarning asosiy qismi yuridik bitimlardan va boshqa xodisalar natijasida kelib chiqadigan majburiyatlardan tashkil topadi. Ye.A.Suxanovning ta'kidlashicha, shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlardan farqli o'laroq shartnomadan tashqari majburiyatlarning asosiy xususiyati ma'lum yuridik faktlar natijasida qonun kuchi bilan vujudga keladi. Akademik X.R.Rahmonqulov asarlarida shartnomasiz (shartnomaga asoslanmagan) majburiyatlar majburiyatlarning alohida turkumi sifatida e'tirof etiladi va deliktlarni huquqni muhofaza qilishdan kelib chiqadigan majburiyatlar turkumiga kiritadi⁴⁶. Milliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda delikt munosabatlarining yuridik tabiatini ko'pchilik mutaxassislar fuqarolik-huquqiy javobgarlik bilan deliktning o'zaro nisbati orqali ochib berishga harakat qilinishi tahlil etilgan⁴⁷. Xususan, tadqiqotchi A.I.G'aybullaevning fikricha, "Fuqarolik huquqida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni, javobgarlik darajasi sifatida emas, alohida majburiyat sifatida talqin etayotgan mualliflarning fikrlari, zarar yetkazish yuridik fakt sifatida uni qoplash majburiyatini vujudga keltirishi, zarar har doim ham javobgarlikning asosi hisoblangan huquqqa xilof harakat natijasida yetkazilmasligi nuqtai nazaridan to'g'riroqdir"⁴⁸. Haqiqatan, bunday

⁴⁶ Раҳмонқулов Ҳожи-Ақбар. Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). /Ҳуқуқшунослик ихтисоси бўйича олий ўқув юртлири "Хусусий ҳуқуқ" йўналиши магистратура талабалари учун. –Т.: ТДЮИ, 2005 й. 20-6.

⁴⁷ Xazratqulov Odilbek Tursunovich. Delikt majburiyatlarining kollizion masalalari / O'quv qo'llanma. – Т.:TDYuU, 2023. 106– bet.

⁴⁸ Гайбуллаев А.И. Автотранспорт воситалари билан етказилган зарар учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик муаммолари. Юрид.фан.номз.дис....Автореф. –Тошкент. ТДЮИ, 2012. 8-6.

majburiyatlar bir shaxsning boshqa bir shaxsga nisbatan zarar yetkazishi natijasida vujudga keladi.

Milliy qonunchiligimizda majburiyatlarning vujudga kelishi, dilekt majburiyatlar atamasi to'g'ridan to'g'ri qo'llanilmasa-da, asosiy shartlari, turlari, tartibi belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 8-moddasi 2-qismi 6-bandida fuqarolik huquq va burchlarining vujudga keltiruvchi asos sifatida "boshqa shaxsga zarar yetkazish" ham keltirilgan. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar uchun zarur bo'lgan yuridik fakt bu – boshqa shaxsga zarar yetkazilishi fakti hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985-moddasi, 1-qismida zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar yoritib berilgan. Mazkur moddaga ko'ra, "G'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim"⁴⁹. Shunga o'xshash tarzda mazkur majburiyatning mohiyati boshqa fuqarolik huquq tizimlarida ham belgilangan. Germaniya Fuqarolik Tuzuklarining 823-moddasi 1-qismida "boshqa shaxsning xayotiga, badaniga, sog'ligiga, erkinligiga, mulkiga va boshqa huquqiga qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida zarar yetkazgan shaxs, kelib chiqqan zararni qoplashga majbur"⁵⁰. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 985-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan normadan farqli ravishda Germaniya Fuqarolik Tuzuklarining 823-moddasi 1-qismida aybning turlari ham nazarda tutilgan bo'lishiga qaramay, ikkala normada ham asosan boshqa shaxsga zarar yetkazish mazkur zararni qoplash majburiyatini keltirib chiqarishi to'g'risidagi qoida o'z ifodasini topganganligini kuzatish mumkin. Shaxsga zarar yetkazgan shaxsda bevosita majburiyat, ya'ni uni qoplab berish majburiyati vujudga keladi. Aynan shu majburiyat dilekt majburiyat hisoblanadi.

Mamlakatimiz qonunchiligida dilekt majburiyatlarning maxsus turlari ham aniq belgilab berilgan. Masalan, fuqaroning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1005-1016 moddalari bilan, tovarlar, ishlar, xizmatlardagi nuqsonlar oqibatida yetkazilgan zararining o'rnini qoplash majburiyati Fuqarolik kodeksining 1017-1020 moddalari bilan, ma'naviy zararni qoplash majburiyati Fuqarolik kodeksining 1021-1022 moddalari bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga aytib o'tish mumkinki, milliy qonunchiligimizda kolleziya normalar, dilekt majburiyati bilan bog'liq normalarning aniq iyerarxiyasi mavjud emas. Qaysi norma imperativ, qaysi norma dispozitiv yoki alternative ekanligi aniq belgilab berilmagan. Qonunchiligimizga normalar iyerarxiyasi bilan bog'liq normalarni qo'shish maqsadga muvofiqdir. Bu qonunni qo'llash amaliyotida turli tushunmovchilik holatlarini oldini oladi.

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/-180552#-196564>

⁵⁰ Xazratqulov Odilbek Tursunovich. Delikt majburiyatlarining kolliziya masalalari / O'quv qo'llanma. – T.:TDYuU, 2023. 106– bet.

Xalqaro xususiy huquqda delikt majburiyatiga qaysi davlat qonuni qo'llanilishi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. "Zarar yetkazilgan joy qonuni" tamoyili asosiy kollizion qoida sifatida keng qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro delikt munosabatlarini tartibga soluvchi zamonaviy qoidalarni qabul qilgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1194-moddasi chet el elementi bilan murakkablashgan delikt masalalariga xalqaro xususiy huquqning lex loci delicti (commissi), ya'ni, «zarar yetkazilgan joy qonuni» tamoyilini asosiy tamoyil sifatida belgilaydi. Unda keltirilishicha, zarar yetkazilganligi oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha huquq va majburiyatlar zararni undirishni talab qilish uchun asos bo'lgan harakat yoki boshqa holat yuz bergan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi⁵¹. Shu bilan birga qonunchiligimizda istisnoli normalar ham mavjud. Chet elda zarar yetkazilganligi oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha huquq va burchlar, agar fuqarolar yoki yuridik shaxslar ayni bitta davlatdan bo'lsalar, shu davlat huquqi bilan belgilanadi. Ya'ni, fuqarolik bo'yicha qaysi davlatga mansubligidan kelib chiqib qaysi davlat huquqi qo'llanilishi ushbu normada nazarda tutilgan. Keyingi normaga ko'ra, agar zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi talab uchun asos bo'lgan harakat yoki boshqa holat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bo'yicha g'ayriqonuniy bo'lmasa, chet el huquqi qo'llanmaydi. Demak, mamlakatimiz qonunchiligi bilan belgilab qo'yilgan normalarni buzmasdan sodir etilgan bo'lsa bunda chet el qonunchiligini qo'llash mumkin emas, milliy qonunchilik g'ayriqonuniy deb topmagan harakatni chet qonuni bilan noqonuniy deb toppish mumkin emasligi aynan shu norma bilan belgilab qo'yilgan.

Yana bir norma Fuqarolik kodeksining 1195-moddasida iste'molchiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalasi belgilab qo'yilgan. Tovarni sotib olish, ishni bajarish yoki xizmatni ko'rsatish munosabati bilan iste'molchi ko'rgan zarar o'rnini qoplash to'g'risidagi talabga nisbatan iste'molchining xohishiga ko'ra:

- ✓ iste'molchining turar joyi joylashgan mamlakatning huquqi;
- ✓ ishlab chiqaruvchi yoki ishni bajargan, xizmat ko'rsatgan shaxsning turar joyi yoki manzili joylashgan mamlakatning huquqi;
- ✓ iste'molchi tovarni sotib olgan, ish natijasini qabul qilgan yoki unga xizmat ko'rsatilgan mamlakatning huquqi qo'llanadi.

Bu norma bilan iste'molchi tomonidan unga qulay bo'lgan huquqni tanlash imkoniyatini taqdim etiladi. Qonunchiligimiz aniq normani qa'iy qo'ymaydi, balki tanlov imkoniyatini beradi. Bu tanlov imkoniyatining mavjudligi amaliyotda taraflarni kelishuviga olib kelishi ham mumkin, ayrim hollarda esa nizolarga ham sabab bo'lishi ham mumkin. Normaning qat'iy bo'lishi tomonlarning undan og'ishmasdan rioya etishiga va aniq qoida asosida nizolarning hal etilishiga zamin yaratadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, delikt majburiyatlar shartnomadan tashqari vujudga keladigan huquqiy javobgarlik shakli hisoblanadi. Bunday javobgarlik shakli shaxsga yetkazilgan zarar oqibatida yuzaga keladi. Delikt majburiyatning asosiy

⁵¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/docs/-180552#-196564>

shartlari – noqonuniy harakat, zarar, sababiy bog'liqlik hisoblanadi. Ushbu institut xalqaro xususiy huquqda jabrlanuvchi huquqlarini himoya qilishga, uning tiklanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Xalqaro munosabatlarda delikt masalalarini hal etishda kollizion normalar muhim o'rin tutadi. Shunday normalarning asosiysi lex loci delicti tamoyilidir. Ushbu tamoyilga ko'ra, zarar qaysi hududda yetkazilgan bo'lsa, o'sha davlat huquqi qo'llaniladi. Lex loci delicti hududiy adolatni ta'minlaydi. U jabrlanuvchi manfaatlarini samarali himoyalashga yordam beradi. Shu bilan birga, huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston qonunchiligida ham mazkur tamoyil e'tirof etilgan.

Xususan, Fuqarolik kodeksining 1194-moddasida zarar yetkazilgan joy qonuni qo'llanilishi belgilangan. Bu milliy huquq tizimining xalqaro huquq tamoyillariga mosligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga o'rganish davomida bir qator holatlarga yangiliklarni joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Mamlakatimiz qonunchiligida dilekt majburiyatlarning huquqiy asosi umumiy qilib berilgan bo'lsa-da, xalqaro huquqda qo'llaniladigan "delikt" tushunchasi aniq aksini topmagan. Ushbu tushunchani keltirish qonunchilikni yanada to'ldiradi degan xulosadamiz.

Bundan tshqari, delikt majburiyatlar bilan bog'liq normalarning aniq iyerarxiyasini, qaysi holatda qanday qonun qo'llanishi bo'yica aniq normani berish, tanlov huquqini tomonlarning o'ziga havola qilmasdan, balki, qonunning o'zida aniq belgilash kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini olishiga ishonamiz.

Umuman olganda, delikt majburiyatlari xalqaro xususiy huquqning murakkab va rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. O'zbekiston qonunchiligi asosiy tamoyillarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni.
4. Regulation (EC) No 864/2007 of the European Parliament and of the Council on the law applicable to non-contractual obligations (Rome II).
5. Convention on the Contract for the International Carriage of Goods by Road (CMR), Geneva, 1956.
6. Convention of 18 March 1970 on the Taking of Evidence Abroad in Civil or Commercial Matters.

II. Monografiyalar va darsliklar:

1. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. М.: Юристъ, 2005. 604 с.
2. Дмитриева Г.К. Международное частное право: Учебник. М.: Проспект, 2016. 680 с.
3. Лунц Л.А. Курс международного частного права. М.: Спарк, 2002. 624 с.
4. Hazratqulov Odilbek Tursunovich. Delikt majburiyatlarining kollizion masalalari / O'quv qo'llanma. – T. :TDYuU, 2023. 106– bet.
5. О.Н. Садиков. Гражданское право Российской Федерации. Учебник. Том II. –М.: Инфра-М, 2006. –С.447.
6. Раҳмонқулов Ҳожи-Акбар. Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). /Ҳуқуқшунослик ихтисоси бўйича олий ўқув юртлари "Хусусий ҳуқуқ" йўналиши магистратура талабалари учун. –Т.: ТДЮИ, 2005 й. 205 б.
7. Файбуллаев А.И. Автотранспорт воситалари билан етказилган зарар учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик муаммолари. Юрид.фан.номз.дис....Автореф. – Тошкент. ТДЮИ, 2012. 250 б.